

# **Uzbekistan Airways'ning yangi yo'nalishlari: keyingi sayohatni qayerga rejalashtirish mumkin?**

**2023 22 Fevral**

Uzbekistan Airways uchun 2023-yil yo'nalishlar tarmog'ining kengayishidan boshlandi. Endi qiziqarli sarguzashtlarni izlayotganlar yoki dam olish mavsumiga tayyorgarlik ko'rayotganlar uchun Pekin, Parij, Milan va boshqa shaharlarni tanlash uchun yanada ko'proq imkoniyatlar mavjud. Ushbu tanlovdan biz sizga yangi yo'nalishlar haqida so'zlab berib, keyingi sayohatingiz uchun shaharlarni tanlashingizda yordam beramiz.

## **1. Pekin**

Pekin - noyob me'morchilik, ekzotik taomlar, choy marosimlari va qiziqarli madaniyat shahri. Bu yerga sayohat qilganingizda, qadimiylar bilan tanishishni unutmang va Buyuk Xitoy devoriga sayohat qilish uchun vaqt ajrating.

10-yanvar kuni Uzbekistan Airways parvozlar xaritasida yangi shahar – Pekin paydo bo'ldi. U yerga aviakompaniya muntazam aviaqatnovlarni amalga oshira boshladи. Endi siz, albatta, sayohat xaritangizda Pekinni belgilashingiz va Uzbekistan Airways bilan sayohatga tayyorgarlik ko'rishingiz mumkin.

## **2. Milan**

Yevropaga tashrif buyurish nafaqat ilk marta sayohat qilayotganlarning, balki malakali sayohatchilarining ham orzusi. Ushbu tilakni ro'yobga chiqarishni rejalashtirayotganlar uchun biz Yevropaning go'zal Milan shahrini kashf qilishni maslahat beramiz. Moda sanoatining poytaxti shubhasiz faqat quvonchli xotiralarni qoldiradi.

29-martdan boshlab Uzbekistan Airways haftasiga ikki marta – seshanba va juma kunlari Toshkent-Milan-Urganch yo'nalishi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni amalga oshiradi.

## **3. Parij**

Yevropaning har bir inson tashrif buyurishi kerak boʻlgan nuqtasi bu orzular va romantika shahri Parijdir. Bu shahar oʼzining taʼsirchan arxitekturasi va oʼziga xos madaniyati bilan butun dunyodan mehmonlarni oʼziga jalb qiladi. Eiffel minorasi hamda Luvrga tashrif buyurish, Sena daryosi boʼylab sayr qilish yoki fransuz oshxonasidan bahramand boʼlish kabi yana koʼplab sabablar kundalik tashvishlardan chalgʼib Parijni kashf qilish uchun yetarli hisoblanadi.

Parijga sayohat qilmoqchi boʼlganlar uchun Uzbekistan Airways 31-martdan boshlab Toshkentdan Parijga toʼgʼridan-toʼgʼri aviaqatnovlarni yoʼlga qoʼymoqda. Endi aviakompaniya yoʼlovchilari Milandan tashqari haftada ikki marta – seshanba va juma kunlari dunyodagi eng romantik shaharlardan biriga tashrif buyurishlari ham mumkin.

#### **4. Nijniy Novgorod**

Nijniy Novgorod qadimgi rus tarixi bilan tanishishni istaganlar uchun ajoyib joy. Ushbu shahar ajoyib tabiat, hikoyalar va afsonalarga boy xilma-xil diqqatga sazovor joylari bilan nom qozongan.

Uzbekistan Airways 28-martdan boshlab Toshkent – Nijniy Novgorod – Toshkent yoʼnalishi boʼyicha haftasiga ikki marta – seshanba va yakshanba kunlari amalga oshiriladigan toʼgʼridan-toʼgʼri aviaqatnovlarni yoʼlga qoʼymoqda.

Uzbekistan Airways bilan sayohatingizni oʼzingizga mos keladigan toʼgʼridan-toʼgʼri aviaqatnovlarni tanlab, rejalashtiring. Aviachiptalarni onlayn tarzda aviakompaniyaning [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) rasmiy sayti yoki “UzAirways” mobil ilovasida xarid qilishingiz mumkin.